



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 5

Languages of publication: **Uzbek,** English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



**ERONNING BRONZA DAVRI PROTO SHAHARLARI****Nabijonov Komiljon Nodirjon o'g'li**

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Tarix yo'nalishi 1-kurs 25-07 guruh talabasi

Dilmuratov Shoxnurbek Toxirjon o'g'li

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Tarix yo'nalishi 1-kurs 25-07 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Eron platosida miloddan avvalgi III–II ming yilliklarda shakllangan bronza davri protoshaharlari rivojini yoritiladi.

Kalit so'zlar: Eron, bronza, Jiroft, Shahdad, Tepe-Yahya, Tal-i Malyan, protoshaharlar.

Аннотация: Данная научная статья предоставляет всесторонний анализ развития протогородов бронзового века, сформировавшихся на Иранском плоскогорье в третьем–втором тысячелетиях до нашей эры.

Ключевые слова: Иран, бронза, Джирофт, Шахдад, Тепе-Яхья, Тал-и Малиян, протогорода.

Annotation: This scholarly article provides a comprehensive analysis of the development of Bronze Age proto-urban settlements that emerged on the Iranian Plateau during the third to second millennia BCE.

Keywords: Iran, bronze, Jiroft, Shahdad, Tepe-Yahya, Tal-i Malyan, proto-cities.

Bronza davrida Eron platosi Yaqin Sharqning eng muhim ma'daniy hududlaridan biri sifatida shakllandi. Aholining ko'payishi, dehqonchilikning intensivlashuvi, hunarmandchilikning rivoji va xalqaro aloqalar kengayishi protourban tuzilmalarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Bronza davri miloddan avvalgi III-II ming yillikni o'z ichiga oladi. Bu davrda egey daryosi, Misr, ikki daryo oralig'i, Hindiston va Xitoyda quldorlik jamiyati ravnaq topgan. Yevropa va Osiyoning ko'p mamlakatlarida esa hali ibtidoiy jamoa tuzumi hukm surgan. Yaqin Sharqdagi ilk shahar tamadduni shakllangan hududlardan biri bo'lgan Eron platosida bronza davrining boshlarida yirik qishloq-shahar majmualari vujudga kelgan. Bu markazlar hali to'liq davlat tizimiga ega bo'lmagan, biroq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan jadal rivojlana boshlagani uchun ularni proto-shaharlar deb atashadi. Ular miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarga to'g'ri kelib, Mesopotamiya, Hind vodiysi va Oks sivilizatsiyasi bilan uzviy aloqada bo'lgan. Ushbu davrda Eron hududi ilk urbanizatsiya jarayonlarining shakllanishi, hunarmandchilikning rivojlanishi va savdo tarmoqlarining kengayishi bilan ajralib turadi. Eronning bronza davri odatda uch asosiy bosqichga bo'linadi: 1) Ilk bronza – dastlabki urban markazlarning shakllanishi; 2) O'rta bronza – murakkab boshqaruv tizimlari, monumental me'morchilik; 3) So'nggi bronza – proto-davlat tizimlarining paydo bo'lishi.

Bronza davri Eroni turli ekologik hududlarda joylashgan yirik markazlarga ega bo'lgan. Ularning har biri o'zining iqtisodiy funksiyasi va madaniy uslubiga ega bo'lgan bo'lib, umumiy tarzda ular urbanizatsiyaning tabiiy bosqichlaridan





dalolat beradi. Jiroft mintaqasi monumental me'morchilik, murakkab tosh o'ymakorligi, irrigatsiya tizimlari va xlorit idishlar bilan mashhur. Topilgan arxeologik materiallar bu hududning Mesopotamiya, Oman, Balujiston va Hind vodiysi bilan uzviy savdo aloqalariga ega bo'lganini ko'rsatadi. Jiroft sivilizatsiyasi ayrim tadqiqotchilar tomonidan Yaqin Sharqning mustaqil yozuv tizimiga ega bo'lgan markazi sifatida ham qaralmoqda.

Shahdad Lut cho'li chekkasida joylashgan bo'lib, bronza davri metallurgiyasining eng yirik markazlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda bronza qurollari, miniatyura aravachalar, geometrik naqshli metall buyumlar va muhrlar topilgan. Shahdad jamiyati ijtimoiy tabaqalanishning aniq izlariga ega bo'lgan.

Tepe-Yahya Eron va Hindiston o'rtasidagi savdo yo'llari ustida joylashgan bo'lib, xlorit idishlari ishlab chiqarish markazi sifatida tanilgan. Bu hududdagi antropologik, zoologik va botanika topilmalari murakkab iqtisodiy tizim mavjudligini ko'rsatadi.

Tal-i Malyan Elam sivilizatsiyasining ilk siyosiy markazlaridan biri bo'lib, saroy majmualari, markazlashgan boshqaruv va proto-elam yozuvi bilan ajraladi. Uning iqtisodiy tizimi asosan dehqonchilik, zargarlik, keramika ishlab chiqarish va savdo bilan bog'liq bo'lgan.

Bronza davri protoshaharlarining iqtisodiy tizimi ko'p tarmoqli bo'lib, sug'oriladigan dehqonchilik, metallurgiya, hunarmandchilik, to'qimachilik, savdo va transport tarmoqlariga asoslangan edi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ichki iste'mol bilan birga eksport uchun ham tayyorlangan. Protoshaharlarda ichki kvartallar, hunarmandchilik zonalari, omborxonalar, marosim maydonlari va mustahkam istehkomlar mavjud bo'lgan. Shahar rejalashtiruv ijtimoiiy tabaqalanishning muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida shakllangan.

Xlorit idishlar, hayvonot tasvirlari, antropomorf haykalchalar va muhrlardagi diniy sahnalar Eron bronza davri jamiyatlarida murakkab ideologik tizim mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytamizki, Eronning bronza davri proto-shaharlari Yaqin Sharq uzbanizatsiyasi tarixida muhim o'rin egallaydi. Ular ilk shahar rejalashtirish tizimi, markazlashgan xo'jalik, hunarmandchilikning taraqqiyoti va savdo aloqalarining kuchayishida hal qiluvchi ro'l o'ynagan. Susa, Jiroft, Shahr-I Sokhta, Siyalik va Anshan kabi yodgorliklar Elam davlatining shakllanishi va Eron platosining qadimgi sivilizatsiya markazi sifatida rivojlanishiga asos yaratdi. Proto-urban jarayonlarning o'rganilishi Yaqin Sharqdagi ilk tamaddunlarning o'zaro bog'liqligini anglashga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Jo'raqulov M., Isomiddinov M. O'rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – Samarqand, 1999.
2. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. -T., 1993.
3. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. -T., 2004.
4. Eshov B.J. Qadimgi O'rta Osiyoning shaharlari tarixi. -T., 2006.

